



O'LIM JAZOSINING JAMIYATGA TA'SIRI

Shomurodova Ruxshona

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoiy odil sudlov" fakulteti

"B" potok 2-guruh talabasi

e-mail: rshomurodova44@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'lm jazosini salbiy va ijobiy tomonlarini, jamiyatda huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishda samarali vosita bo'lishi mumkinligi, demokratik davlatlarda o'lim jazosi qo'llanmasligi, O'zbekiston Respublikasi jazo tizimidan chiqarib yuborganligini tahlili keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *jazo, prinsiplar, qadimgi jazo tizimi, Yaponiya tizimi, o'lim jazosi turlari, zo'ravonlik, statistika.*

Annotation: *This article analyzes the negative and positive aspects of death penalty, the fact that it can be effective way to prevent offenses and crimes in society, the use of the death penalty in democratic countries, as well as the abolition of this punishment in the Republic of Uzbekistan.*

Keywords, *punishment, principles, ancient penal system, Japanese system, types of death penalty, violence, treason, statistics*

Аннотация: *В данной статье анализируются отрицательные и положительные стороны смертной казни то что она может быть эффективным способом преступлений в обществе*

Ключевые слова: *наказаниеб, принципы, древняя пенитенциарная, система, насилие, измена, статистика*



Zamonaviy sharoitda muammoning dolzarbligi shubhasizdir, jamiyatda huquqbuzarlik va jinoyat sodir bo'lgandan so'ng albatta ular uchun jazo tayinlash muqarrardir. Jazo-jinoyat sodir qilayotgan shaxslarni qilmishidan to'g'ri xulosa chiqarish, axloqini tuzatish, jamiyatda huquqbuzarliklarni oldini olish va boshqa shaxslarni jinoyat sodir etishini oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Qadimda jinoyat sodir etgan shaxslarga har xil jazo turlari qo'llanilgan. Masalan, qadimgi Misrda davlat sirlarini oshkor qilish og'ir jinoyat bo'lib, bu jinoyatni sodir etgan aybdor shaxslarning tili kesib tashlangan. Shuningdek, qalbaki narsalarni yasash va tayyorlash ham jinoyat hisoblanib, aybdorlarning qo'li chopilgan. Hayratlanarli jihati, qalbaki muhrlar, pullar yasaganlarning chap va o'ng qo'llari, soxta tosh- tarozilardan foydalangan kishining tana a'zolaridan biri kesilgan.

Qasamxo'rlik jinoyatlari, odam o'ldirish va ayrim holatlarda yolg'on xabar berganlik uchun aybdorlar o'lim jazosiga hukm qilingan.

Otasining umriga zomin bo'lgan qotil farzandning tanasidan go'shtlari sug'urib olinib, keyin tikanlarga yotqizilgan va qotillik jinoyatiga qo'l urgan padarkush farzand olovdan



yoqib yuborilgan. Hozirgi kundagi jinoyatlarga nisbatan yengilroq jazo qo'llaniladi, chunki insonparvarlik, adolatlilik, demokratizm, shaxsni qadr-qimmatini kamsitmaslik uchun inson huquqlarini oliy o'ringa qo'ygan holda jazo tayinlanadi. Hozirgi kundagi sodir etilayotgan jinoyatlarga nisbatan yengilroq jazo choralari qo'llanilmoqda, sababi insonparvarlik, adolatlilik, demokratizm, shaxsni qadr-qimmatini kamsitmaslik uchun inson huquqlarini oliy o'ringa qo'ygan holda jazo tayinlanadi. Jamiyatda shunday jinoyatlar borki ularni eshitib, insoniy fazilatlaridan chetga chiqqan ularni inson deb aytashga ham til boraydi, shunday jinoyatlarga nisbatan eng oliy jazo o'limga hukm qilishini xoxlaymiz. O'lim jazosi bilan jazolanadigan jinoyatlarga odatda qotillik, zo'rlashning og'irlashtirilgan holatlar, jinsiy zo'ravonlik, terrorizm, insoniyatga qarshi jinoyatlar, davlat to'ntarishiga urinish, davlatga xiyonat, josuslik kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, ayrim hollarda giyohvand moddalar savdosi va giyohvand moddalarni saqlashdan tashqari, takroran jinoyat sodir etish, og'irlashtirilgan talonchilik va odam o'g'irlash kabi jinoyat ham jiddiy jinoyatlar hisoblanadi. Shunday bo'lsada, o'lim jazosi ayrim rivojlangan davlatlarda saqlanib qolgan, ayrimlarida esa yo'q.

Statistikaga qaraydigan bo'lsak, o'lim jazosi hozirda 58ta mamlakatda bekor qilingan, 31ta davlat qonunida ko'zda tutilgan bo'lsada, keyingi 15 yil davomida ularning aksariyatida hech kim bu jazoga hukm qilinmagan. O'lim jazosi 77ta mamlakatda shu jumladan, Xitoy, Eron, Saudiya Arabistoni, Yaponiya va AQSHning 38ta shtatida qo'llanilmoqda. Pokiston, Kongo, Nigeriya va Yamanda voyaga yetmaganlar ham o'lim jazosiga hukm etilishi mumkin. Har bir davlatda o'lim jazosini turlari va qo'llanilishi har xil. Masalan: Singapur-osish, Xitoy-zaharli ukol, Shimoliy Koreya- otish, Afg'oniston-otish, osish, AQSH- zaharli ukol, elektr stol, Eron-osish. O'rtacha yiliga eng ko'p o'lim jazosi qo'llaniladigan davlatlar, Xitoy 1 yilda- 1551 ta, Eronda-525ta, Saudiya Arabistonda-130ta o'lim jazosi qo'llaniladi. Yaponiyada o'limga hukm qilingan jinoyatchilar jazo tayinlangandan keyin 5 yil 11 oy 2,5m. kv kamerida saqlanadi. Bu davrda unga radio va televizor mumkin emas. Faqat 3ta kitob o'qish uchun imkon beriladi, 2 faslda yozda 3 marta, qishda 2 marta 17 daqiqa ochiq havoda sayr qilish imkoniyati bor. Mahkum yarim soat qolganda jazoni ijro etilishi haqida xabar topadi. Hukmni 3ta harbiy ijro etadi, 3 harbiy ham bir vaqtning o'zida bir xil tugmani bosadi. Bu esa ularni kim hukmni ijro etganini bilinmasligini ta'minlaydi va mahkum osiladi.

2000-2009-yillar orasida 112 kishi o'lim jazosiga hukm qilingan. O'lim jazosini bekor bo'lishi jamiyatga qanday ijobiy ta'sir qiladi: noqununiy hukm qilish xavfi kamayadi ya'ni o'lim jazosini tayinlashdagi xatoni shaxs allaqachon qatl qilinganidan keyin tuzatib bo'lmaydi hamda ushbu jazoning bekor qilinishi adolatsizlikdan saqlaydi. 1993-yil avgust oyida qatl etilgan AQSHning Texas shtatida yashovchi 26 yoshli Ruben Kantning hikoyasi ham Amerikani hayratda qoldirdi. U qurolli

1. X.T.Odilqoriyev davlat va huquq nazariyas darsligi



talonchilik va qotillikda ayblangan va o'lim jazosi mahkum etilgan. Faqat 2005-yildagina shubhali faktlar asosida begunoh odam qatl etilgani ma'lum bo'lgan va bunga misol sifatida boshqa bir qancha holatlar mavjud. Suddagi xatoliklarni to'g'irlab bo'lmaydigan oqibatlariga olib kelishi mumkin. Nohaq o'lim hukmi bilan jazolanganni qaytib tiriltirib ham bo'lmaydi. Shu jihatdan ham shaxsning hayoti har narsada ustun hisoblanadi. O'lim jazosining bekor qilinishi gumanizm hamda demokratizm g'oyalarini keng rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. O'lim jazosi yo'q mamlakatlarda inson hayoti va qadr-qimmatiga hurmat aks ettiriladi, jamiyatda insonparvarlik va mehr-oqibat muhimligi ta'kidlanadi. Uchinchidan, mahkumga o'z qilmishini oqibatlarini ko'rsatish hamda qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalash uchun o'lim jazosidanda samaraliroq jazo turlari mavjud masalan, uzoq muddatli va umrbod ozodlikdan mahrum qilish. Fikrimcha, jazoning maqsadi ham jinoyatchini tarbiyalash, axloqan tuzatish bo'ladigan bo'lsa jinoyatchi o'lim jazosiga mahkum etilishidan qanday mantiq mavjud?

O'lim jazosini bekor qilinmasligining sabablari: bu ko'plab jinoyatlarning potensial o'sib borishiga to'sqinlik qilishi mumkin. O'lim jazosi jamiyatni xavfli jinoyatchilardan himoya qilishga yordam beradi. Ayrim insonlar qattiq jazo choralarini qo'llab, jinoyat uchun qat'iy va og'ir javobgarlik tizimi joriy etilganida odamlar o'zlarida qonun kuchini sinab ko'rishga jur'at etaolishmaydi deb hisoblashadi. Undan tashqari, ushbu masalani moliyaviy tendensiyasi ham mavjud chunki jinoyatchini qamoqda saqlab turish, uni oziq-ovqat kiyim-kechak bilan ta'minlash bevosita iqtisod bilan bo'g'liq. Hukumat umrbod qamoqqa ko'ra uy-joyga joylashtirish qimmatroqqa tushishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida 2005-yilgacha o'lim jazosi qo'llanilgan, prezidentni qarori ga muvofiq amalga oshirilayotgan jamiyat va davlat hayotini demokratik jihatdan yanada yangilash, mamlakatni modernizatsiya qilish borasidagi islohotlarning mohiyati va mazmuni, sud-huquq tizimini liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning natijalari jazo turi sifatida o'lim jazosi bekor qilinishi hamda uni umrbod yiku uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etish jazosi bilan almashtirilishi zarurligini taqozo etmoqda. 2008-yil 1-yanvardan boshlab o'lim jazosi jinoyat jazo sifatida batamom bekor qilindi.

O'zbekistonda o'lim jazosining bekor qilinishi va taqiqlanish BMTning 1966-yil 16-dekabrda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro" pakt talablariga to'liq muvofiq keladi.⁵ O'tgan yili konstitutsiya o'zgartirish kiritishda o'lim jazosini tiklash keng muhokamalarga sabab

4. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida- PF-3641

5 M.X.Raxmonqulovni- yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob

bo'ldi. O'lim jazosiga qaytmaslik yuzasidan O'zbekistonning qat'iy pozitsiyasi Konstitutsiyada mustahkamlanishi davlatimizda inson hayoti va qadri yuqori darajada muhofaza etilishini yana bir bor tasdiqlaydi. Bugungi kunda 106 davlatda Kanada, Argentina, Daniya, Fransiya, Italiya, Bolgariya, Polshada o'lim jazos barcha jinoyatlar uchun bekor qilingan.



Konstitutsiyaga ushbu normaning kiritilishi bilan O'zbekiston insonparvarlik g'oyalariga o'z sodiqligini namoyon etadi, ijtimoiy-siyosiy hayotimizda o'lim jazosini qaytarish bo'yicha har qanday tashabbuslarga barham beradi. Shuni unutmasligimiz kerakki, har bir insonning, hatto u jinoyat sodir etgan bo'lsa ham, yashash huquqning kafolatlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan materiallar:

- 1.X.T.Odilqoyev, davlat va huquq nazaryasi, Darslik, Toshkent, 2023
- 2.M.X.Rahmonqulov- Yangilanayotgan Konstitutsiya 100 savolga 100 javob. – Toshkent:Adolat.2023.-b.12-13
- 3.PF-3641,O'zbekiston Respublikasida O'lim jazosini bekor qilish to'g'risida, 01.08.2005